

**PEDAGOG XODIMLARNING BOSHQARUV FAOLIYATIDA NUTQ MADANIYATI
VA ODOBI**

Mamayusufov Ismat Iskandarovich

*Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix (mamlakatlar va
yo'nalishlari bo'yicha 1-TS 2022 guruh 2-kurs talabasi*

Annatsiya: *Ushbu maqolada xodimlarning boshqaruv faoliyatida nutq madaniyati va odobi haqida xamda, boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tamoyillari haqida, rahbar xodimlami ish faoliyati va ma'naviy qiyofasi tahlil qilingan.²⁴*

Kalit so'zi: *Pedagog, kadrlar, nutq madaniyati, rahbar.*

KIRISH

Ma'lumki, so'zlashish odobi, muomala madaniyati, o'zaro munosabatlar insonlarda nutq orqali amalga oshiriladi.

Bulaming barchasi insonlar va ayniqsa, rahbar xodimlar ma'naviy qiyofasini shakllanishida, ish jarayonida, o'zaro muloqotlarda kerakli so'zlami topib aytish, mazmunli iboralar tuzish, ulami o'mida qo'llay bilishi alohida ahamiyatga ega, ta'lim muassasalarini boshqarishda maktab rahbariga qo'yiladigan talablar va ulaming pedagogik imkoniyatlari. Maktab rahbarining vaqtdan unumli foydalana olish madaniyati. Ta'lim muassasasini huquqiy me'yoriy hujjatlari, «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi» Nizom, Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, o'quv dastur.

Mazkur tizim rahbarlari yoshlami hayotga tayyorlashda bugungi ta'lim xodimlariga qo'yiladigan zamonaviy talablar nimalardan iboratligi, maqsadni to'g'ri qo'yish, maktab faoliyatini strategik rejalashtirish, jamoa qadriyatlarini va kuchli jamoani shakllantirish muhimligi, rahbarlarda notiqlik san'atini rivojlantirish, zamonaviy maktab rahbarining rejasi qanday bo'lishi lozimligi, inson kapitalini boshqarish asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari borasida boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lishlar zarur.

Rahbar shaxs xislatlari. Rahbar shaxsi tushunchasini tahlil etar ekanmiz, unga xos xususiyatlarni uch guruhga bo'lib o'rganish taklif qilinadi

1. Biografik tavsif
2. Qobiliyat
3. Shaxs xislatlari

Rahbar va pedagog xodimlami tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish, xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimiga zamonaviy axborot-

²⁴ Ziyouz.com kutubxonasi.

kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shaffof va samarali jamoatchilik nazoratiga erishish, lavozimga da'vogar xodim ega bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlar professiogramma yoki malaka xaritasi deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, bu ideal xodimning "portreti" bo'lib, uning shaxsiy fazilatlari, muayyan funktsiyalarni va ijtimoiy rollarni bajarish qobiliyatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Rahbarning butun boshqaruv tizimida yetakchi o'rin egallashi, bir tomondan, tashkilotdagi islohotlarni amalga oshirishda mas'uliyatni o'z bo'yniga olish zarurati, ikkinchidan esa itoatdagi xodimlarning rahbarga bo'lgan ishonch va umidlari bilan asoslanadi. Tashkilotni tuzilma sifatida qabul qilarkanmiz, uning rahbari boshqaruvning aynan ikki asosiy funksiyasini ta'minlovchi shaxs sifatida tushuniladi. Tashkilot miqyosida tahlil qilinganda yuqorida qayd etilgan asosiy funksiyalar quyidagicha ifoda etiladi, maqsadga yo'naltiruvchi funktsiya-tashkilotni ma'lum maqsadga olib boruvchi vazifalarni mujassamlashtiradi. Tashkiliy funktsiya- Tashkilot turli bo'limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Boshqaruv psixologiyasining predmeti va vazifalari.²⁵

Ko'rib o'tganimizdek, boshqaruv psixologiyasi boshqaruv maqsadi va vazifalarni amalga oshirish davomida boshqaruv subyekti va obyektini o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatni talqin etadi. Mazkur munosabat tizimining tashkiliy qismlari o'zaro itoatdalligi bilan xarakterlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayon tashkilotchilari hisoblangan rahbarlar va o'qituvchilar belgilangan maqsadlarga erishishda ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalari, qiziqishi, ehtiyoji va qobiliyatlarini, shaxsiy xislatlarini, shuningdek pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o'rganishlari va shular asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli tadbirlarni ishlab chiqishlari zarur. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun pedagog xodimlar va rahbarlarning asosiy vazifasi jamoada zaruriy shart-sharoitlarini yaratish, raqobatbardosh kichik mutaxassislar tayyorlash uchun pedagogik jarayonlarni yaxlit tizim sifatida rivojlantirish hisoblanadi. Boshqaruv madaniyati-umumiy ijtimoiy madaniyatning tashkil etuvchi komponenti sifatida ma'um bir ijtimoiy madaniyat kontekstida boshqaruv tushuncha munosabatlarning o'zaro ta'sir etishi natijasida an'anaviylik, dolzarblik motivlashtirish tizimi, rahbarlik uslublari, muhitning sifati, kommunikatsiyalar boshqaruv strategiyasi rahbar va professor o'qituvchilarning kasbiy madaniyati rasmiy jihatdan namoyon bo'ladi. Boshqaruv faoliyati - ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'yektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv ob'yektini boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z o'zida boshqaruv natijalariga va

²⁵ Menejment. M. Maxkamova, S. Yuldasheva, Sh. Xolmatova, O. Shmigun Toshkent-2007

boshqaruv sub'yektiga ta'sir ko'rsatadi. Rahbar madaniyati - rahbar odobi va iqtidori o'rtasidagi dialektik bog'lanish. Bu bog'lanish odob, iymon, insof, adolat va iqtidor kabi fazilatlar majmuidan iborat bo'ladi. Rahbaming kasbiy madaniyati deganda rahbaming professionalligi, uning professional boshqaruv faoliyatini bajarishga tayyorgarlik darajasi tushuniladi. Bunda rahbarlaming maqsadga muvofiq u yoki bu kasbiy sifatlari alohida vaziyatlarda har bir rahbaming "ideal modelini" shakllantirishga asoslanadi.

Rahbarlik-odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ulaming xulqini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir.

Talab-rahbaming xodimlarga munosabatining bunday shakli mazmun jihatidan buyruqqa yaqin turadi. Buyruq u yoki bu faoliyatni bajarish yoki bajarmaslikka qaratilgan bo'lsa, talab esa aynan o'sha buyruqlaming bajarilishiga qaratilgan bo'ladi. Har bir rahbar xodimning jamoadagi xodimlarga bir xil munosabatda bo'lishi, boshqaruv qobiliyati yuqori darajada bo'lishi shu jumladan rahbar xodimlar zamonaviy ish yuritishga va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmog'i lozim shunda har bir muassasada ta'lim sifati yuqori darajaga ko'tariladi.²⁶

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ziyouz.com kutubxonasi.
2. Menejment. M. Maxkamova, S. Yuldasheva, Sh. Xolmatova, O. Shmigun Toshkent-2007
3. Menajment va marketing psixologiyasi Uslubiy qo'llanma. Ahrorov V.Yu. Samarqand-2018

²⁶ Menajment va marketing psixologiyasi Uslubiy qo'llanma. Ahrorov V.Yu. Samarqand-2018